



## ҚОР ВА МУЗЛАРНИНГ ЭРИШИ СЕЛ, КЎЧКИ ВА СУВ ТОШҚИНЛАР ЭҲТИМОЛИНИ КУЧАЙТИРАДИ

Мамлакатимиз ҳудудларида юзага келиши мумкин бўлган сел оқимлари, тошқинлар ва кўчки ходисалари билан боғлиқ фавқулудда вазиятларнинг олдини олиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасида Бош вазир Абдулла Аринов раислигида видеоселектор йиғилиши ўтказилди.

Ўзгидрометнинг маълумотига кўра, шу ҳафтадан ҳаво ҳарорати кундузи +10 даражагача ва кечалари +3 даражагача кўтарилади. Ҳатто, тоғ олди ва тоғли ҳудудларда 2-7 даража илик

бўлиши кутилмоқда.

Ҳаво ҳароратининг кўтарилиши – қор ва музлар эришини тезлатиб, сел, кўчки ва сув тошқинлари юзага келиши эҳтимolini янада кучайтиради.

Йиғилишда мавжуд ҳолат ҳудудлар кесимида чуқур таҳлил қилиниб, юзага келиши мумкин бўлган салбий ходисаларнинг олдини олиш ва бартараф этиш юзасидан тегишли вазирлик ва идоралар ҳамда ҳокимликлар раҳбарларига топшириқлар берилди.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг топшириқларига асосан сел оқимлари, тошқинлар ва кўчки ходисалари билан боғлиқ фавқулудда вазиятларнинг олдини олиш бўйича доимий штаб таш-

кил этилди.

Давлатимиз раҳбарининг 2022 йил 18 ноябрдаги қарорига асосан Тошқинга қарши ҳукумат ҳамда ҳудудий комиссиялар тузилган ва уларнинг асосий вазифалари белгиланган.

Вазирлар Маҳкамасида ўтган йиғилиш баёни билан ушбу комиссия аъзолари Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳудудларига бириктирилди.

ЎЗА.

## ФВВ мутахассиси содир бўлган ҳаво-газ аралашмасининг чакнаши билан боғлиқ ҳолат юзасидан маълумот берди

Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида ФВВ бўлим бошлиғи Абдусами Аҳмадов иштирокида брифинг ташкил этилди ва Нукус шаҳрида содир бўлган ҳаво-газ аралашмасининг чакнаши билан боғлиқ ҳолат юзасидан маълумот берилди.

Қайд этилишича, жорий йил 29 январь куни соат 16:15 ларда Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳри «Темир йўл» маҳалласидаги 4 қаватли уйнинг тўртинчи қаватида жойлашган хонадонларнинг бирида ҳаво-газ аралашмасининг чакнаши натижасида портлаш содир бўлган.

Юзага келган кинетик зарба натижасида бино конструкцияларига қисман шикаст етган. Ҳодиса жойида ФВВ

қутқарувчилари ва тегишли идоралар томонидан кидирув-қутқарув ва вазият оқибатларини бартараф этиш ишлари олиб борилган. Қидирув-қутқарув ишлари давомида 30 январь куни соат 02:30 ларда ФВВ қутқарувчилари томонидан турли даражадаги жароҳатлар билан вайроналар остида қолиб кетган 5 ёшли қизалоқ чиқариб олиниб, малакали тиббий ёрдам кўрсатиш учун шифохонага юборилган.

Шунингдек, орадан 30 дақиқа ўтиб, бино конструкциялари орасидан бир нафар фуқаронинг жасади топилган эди. Эрта тонгга келиб, вайроналар остидан яна 4 нафар фуқаронинг жасади топилди, жами ҳалок бўлганлар 5 нафар бўлди.

Ҳозирда воқеа жойига Фавқулудда вазиятлар вазири генерал-майор Абдулла Қўлдошев бошчилигидаги мутасаддилар етиб борган, ходиса оқибатлари бартараф этилмоқда. Мазкур ҳолат юзасидан дастлабки терговолди суриштирув ишлари бошлаб юборилди.

Шу ўринда Фавқулудда вазиятлар вазирлиги содир бўлиши мумкин бўлган газ ва ҳаво аралашмасининг чакнаши, ёнғин ҳамда ис газидан захарланишнинг олдини олиш мақсадида, қуйидагиларга

риоя қилишини сўраб қолади.

Хусусан, газ ва муқобил ёқилғи (кўмир, ўтин, нефть маҳсулотлари ва бошқалар) турларидан фойдаланишда хавфсизлик қоидаларига қатъий риоя этилиши лозим. Агар хонада газ ҳиди чиқса, чирок ва учкун чиқарувчи мосламалардан фойдаланиш тақиқланади. Дархол хонани шамоллатиш чорасини кўриш керак бўлади. Газни зудлик билан ўчириб, хона деразаларини очиш лозим. Ёритувчи ҳамда бошқа электр асбоблар ёқилмаслиги, ёник бўлса, ўчирмаслик керак.

Ностандарт (қўлбола ясалган) ёки сертифицикага эга бўлмаган иситиш печлари ва анжомларидан фойдаланиш ҳамда газ ёки бошқа муқобил ёқилғига мослаштирилган иситиш печлари ҳамда суюлтирилган углеводород газ баллонларини (анжомлари) дам олиш (ухлаш) хоналарига олиб кириш мумкин эмас. Иситиш печлари дудбуронларининг тоза ва соз ҳолатда бўлишини таъминлаш муҳим.

Мухайё ТОШҚОРАЕВА, ЎЗА.





## САЙЁР ҚАБУЛ

Тошкент харбий прокуратураси ташаббуси билан Тошкент вилояти Зангиота туманидаги Мудофаа вазирлигига қарангли харбий қисмларнинг бирида харбий хизматчилар, уларнинг оила аъзолари муаммоларини жойида ўрганиш, фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида Тошкент харбий прокурорининг оммавий сайёр қабули ташкил этилди.

Тадбирда туман мактабгача таълим, соғлиқни сақлаш ҳамда бошқа мутасадди ташкилотлар вакилларига иштирокчилар ўз муаммолари билан мурожаат қилдилар.

Қабулда 70 нафардан ортиқ харбий хизматчи ва уларнинг оила аъзолари иштирок этди. Келиб тушган 12 та мурожаатдан 2 таси жойида қаноатлантирилиб, 6 тасига ҳуқуқий тушунтиришлар берилди. 5 та мурожаат белгиланган тартибда тегишли мутахассисларга йўналтирилиб, уларнинг кўриб чиқилиши харбий прокуратура томонидан алоҳида назоратга олинди.

Қабул давомида Тошкент харбий прокурори А.Бобоев харбий қисм аскарлар ётоқхонасидаги шарт-шароитлар билан танишиб, тегишли тавсиялар берди.

**Алишер ҚУРБОНОВ,**  
Тошкент харбий прокурорининг  
ёрдамчиси, адлия подполковниги.

## “ПРОКУРОР СОАТЛАРИ”

Наманган харбий прокуратурасига бириктирилган олис ҳудудлардаги мактабларда прокурор-тергов ходимлари томонидан ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда ҳуқуқий саводхонлигини ошириш борасида “Прокурор соатлари” ўтказиб келинмоқда.



Хусусан, Наманган харбий прокурори Д.Раҳмонов томонидан харбий прокуратурага бириктирилган Поп тумани “Юкори чодак” маҳалласидаги 71-умумтаълим мактабида ўқувчи-ёшларга Куролли Кучлар тизимида олиб борилаётган ислохотлар, ёшларга яратилаётган имкониятлар ҳамда харбий прокуратура органлари ҳақида тушунтиришлар берилди.

Тадбир давомида ўқувчилар ўзларини қизиқтирган саволларга жавоб олдилар.

Шу билан бирга, ўқувчи-ёшларга мактабда яратилган шароитлар билан танишилиб, уларга турли хилдаги бадиий китоблар топширилди.

**Қ.ПОЛВАННАЗИРОВ,**  
Наманган харбий прокурорининг ёрдамчиси,  
адлия капитани.

Хоразм вилояти Қуриқлаш бошқармаси ҳамда Урганч харбий прокуратураси ҳамкорлигида Урганч шаҳридаги 10-, 24-умумтаълим мактаблари ўқувчилари иштирокида “Очик эшиклар” куни тадбири бўлиб ўтди.

## МУЛОҚОТ

“Маънавий юксалиш ва ватанпарварлик” куни доирасида “Янги Ўзбекистон — янги дунёкараш” шиори остида ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш мақсадида ташкил этилган мазкур тадбирда Урганч харбий прокурорининг катта ёрдамчиси иштирок этиб, ўқувчиларга мавзу юзасидан ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб ўтди. Шунингдек, тадбир давомида камондан ўқотиш амалий машқлари намойиш этилди.

**Ғ.АТОЖОНОВ,**  
Урганч харбий  
прокурорининг катта ёрдамчиси,  
адлия капитани.

## АНЖУМАН

Ўзбекистон Республикаси  
Жамоат хавфсизлиги университетида республика илмий-амалий конференцияси ўтказилди.



Унда Тошкент харбий прокурори А.Бобоев, Тошкент харбий суди раиси Ж.Раҳмонов, Миллий гвардия суриштирувни мувофиқлаштириш бошқармаси катта суриштирувчиси А.Усмонов, “Амир Темури” номидаги ДХХ Академияси ходими Н.Жалилов, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти Р.Одилов, Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучлар Академияси кафедра доценти А.Аҳмедовлар иштирок этдилар.

Конференцияда харбий прокурор А.Бобоев кун тартибидаги мавзу юзасидан ўз таклиф ва мулоҳазаларини билдирди.

**Алишер ҚУРБОНОВ,**  
Тошкент харбий прокурорининг  
ёрдамчиси, адлия подполковниги.

## МУРОЖААТЛАР ТИНГЛАНДИ

Қибрай туманидаги Давлат хизматлари агентлиги биносида ёшлар, чакирилувчилар, харбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари, пенсионерлар ҳамда фуқароларнинг мавжуд муаммоларини аниқлаш ва ҳал этиш мақсадида, маҳаллий бошқарув ва мутасадди органлар билан ҳамкорликда Чирчиқ харбий прокуратураси томонидан сайёр қабул ташкил этилди.

Қабулда Қибрай тумани ҳокими, вилоят ва туман Ички ишлар, Миллий гвардия, Фавкуллда вазиятлар ва Мудофаа ишлари тузилмалари раҳбарлари иштирок этдилар.

Қабул жараёни очик мулоқот шаклида ташкил этилиб, унда билдирилган кўплаб масалалар жойида ҳал этилди.

Сайёр қабул давомида келиб тушган 10 та мурожаатдан 2 таси жойида қаноатлантирилиб, 6 тасига тушунтириш берилди. 2 та мурожаат назоратга

олиниб, тегишли ташкилотларга юборилди.

Бундан ташқари, фаолиятни яхшилаш борасида келиб тушган таклифларни ҳокимлик, Ички ишлар, Мудофаа ишлари ҳамда ҳудудий таълим муассасалари билан ҳамкорликда ижобий кўриб чиқиш юзасидан келишиб олинди.

**С.КАЛЕНДЕРОВ,**  
Чирчиқ харбий  
прокурорининг катта  
ёрдамчиси, адлия майори.

Гулистон харбий прокуратураси ҳамкорлигида Миллий гвардия тизимидаги харбий қисмлардан бирида «Очик эшиклар куни» тадбири ўтказилди.

## “ОЧИҚ ЭШИКЛАР КУНИ”

Унга ихтисослаштирилган мактаб, чакирилувчиларини харбий мутахассисликларга тайёрлаш маркази ўқувчилари жалб қилиниб, курол-аслаҳа, техникалар ва харбий қисмда яратилган шароитлар билан таништирилди.

Шунингдек, харбий прокурор томонидан ёшларга мамлакатимизда Куролли Кучлар, суд-ҳуқуқ соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар ҳақида батафсил маълумотлар берилди.

**Р.ЖАЛИЛОВ,**  
Гулистон харбий прокурори,  
адлия подполковниги.



## УЧ АВЛОД УЧРАШУВИ

Нукус харбий прокуратураси ва ДХХ Чегара қўшинлари қўмондонлигига қарашли харбий қисм билан ҳамкорликда Қорақалпоғистон Республикаси Амударё туманининг олис ҳудудида жойлашган «Қиличбой» маҳалласида уюшмаган ёшлар билан «Уч авлод учрашуви» тадбири ўтказилди.

Унда тумандаги “Афғон уруши жангчилари” уюшмаси, “Фахрийлар кенгаши” аъзолари, маҳалла ёшлар етакчиси, харбий қисм мансабдор шахслари ҳамда Нукус харбий прокуратураси масъул ходимлари иштирок этдилар.

Учрашув давомида мамлакатимизда бугунги кунда ёшларга яратилаётган имкониятлар, Куролли Кучлар ва суд-ҳуқуқ

тизимида олиб борилаётган ислохотлар борасида тушунчалар берилиб, фикр алмашилди.

Тадбир сўнгида иштирокчиларга эсдалик совғалари топширилди.

**А.АЛНМҚУЛОВ,**  
Нукус харбий  
прокурорининг  
ёрдамчиси, адлия  
катта лейтенанти.



## УЧРАШУВ

Наманган вилояти ФВБда хизмат қилувчи кичик офицерлар таркиби ўртасида “Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш” мавзусида учрашув ўтказилди.

Шахсий таркиб ўртасида ҳарбий интизомни мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарлик, шунингдек, коррупциянинг олдини олиш, ҳарбий хизматчи ва хизматчиларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ошириш тadbирнинг асосий мақсади бўлди.

Учрашувда Наманган ҳарбий прокуратураси ходими адлия капитани Ж.Ҳақимов ва вилоят ФВБ масъул ходими подполковник А.Мўминовлар томонидан ҳарбий хизматчиларга хизмат ўташда қузатилаётган қонун бузилиш ҳолатлари, хизмат интизомига амал қилинмаётган вазиятлар ва қонун талабларини бузган ҳарбий хизматчи қай тартибда жазоланаётгани яна бир бор иштирокчиларга айтиб ўтилди.

**У. БОБОЖОНОВ,**  
Наманган вилояти ФВБ бошлиғи  
**Ўринбосари, подполковник.**



## ТЕКШИРУВЛАР ҚОНУНИЙ БО‘ЛСИН!

Хоразм вилояти ФВБда тadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarda qonuniylikni ta'minlash yuzasidan seminar o'tkazildi.

Unda harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, Vazirlar Mahkamasining “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari mazmun-mohiyati yetkazildi hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishda qonuniylikni ta'minlash, korrupsiya bilan bog'liq holatlarning oldini olish masalalari ko'rib chiqildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili devoni xodimi Dilshodbek Xodjayev qatnashdi.

Seminarda O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 245-va 248-moddalariga o'zgartishlar kiritish haqida”gi qonuniga to'xtalib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar yuzasidan ishtirokchilarga batafsil ma'lumotlar berildi. Qolaversa, seminar, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish davomida xodimlarning korrupsiyaga yo'l qo'ymasliklari bo'yicha profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazib borish kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

**Mirzajon QURBONOV,**  
Хоразм вилояти ФВБ ходими, капитан.

**Izzat MADAMINOV,**  
boshqarma xodimi, kapitan.



## КўП ҚАВАТЛИ УЙЛАР ЎРГАНИЛДИ

Тошкент вилояти Ўртачирчиқ тумани ФВ бўлими томонидан аҳоли яшаш уйларида қуз-қиш мавсумида не газидан заҳарланиш ва аҳоли турар жойларида ёнғинларнинг олдини олиш юзасидан фуқаролар билан тарғибот ишлари ўтказилди.

Шунингдек, аномал совуқ кунларда туманда мавжуд кўп қаватли аҳоли яшаш уйларида бўлим ходимлари, ТЭТК мутахассислари, ва туман газ ходимлари ҳамкорлигида аҳоли орасида тарғибот ишлари олиб борилди.

Ўрганишлар давомида аниқланган камчиликлар мутахассислар томонидан бартараф этилди.

**Ж.ҚАМБАРОВ,**  
Ўртачирчиқ тумани ФВ бўлими НТБ бошлиғи, капитан.  
**А.ЗОКИРОВ,**  
бўлим ПванБ инспектори, катта сержант.



“Навоий кон-металлургия комбинати” Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ва унинг Учқудук, Зарафшон, Конимех туманидаги Зафаробод ҳамда Навоий саноат майдони, Жанубий кон бошқармалари ҳудудларида жойлашган бўлим ва ёнғин-қутқарув қисмларининг барча раҳбар ходимлари билан Коррупцияга қарши курашиш комиссиялари таркиби иштирокида Навоий ҳарбий прокурори, адлия полковниги Ж.Ўринов иштирокида семинар ўтказилди.

Unda Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 12 январдаги қарори ҳамда “Давлат бошқарув соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш ва ушбу соҳада жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 11 майдаги қарори мазмун-моҳиятига эътибор қаратилди.

Тadbир давомида 2023 йилнинг I чораги давомида “Менинг бошқар-

## СЕМИНАР

мам – коррупциядан холи ҳудуд” мавзусида жойларда профилактик тadbirlar ўтказилиши юзасидан Коррупцияга қарши курашиш комиссияси раисларига кўрсатмалар берилди.

Шу билан бирга, коррупцияга қарши курашиш бўйича профилактик тadbirlarda ҳарбий хизматчи ва ишчи-хизматчиларнинг ишлаб чиқилаётган раҳбарий ҳужжат билан мунтазам равишда таништириб бориш, бундан ташқари, кўл остидаги ходимлар тарбияси билан ўз вақтида шугулланиш, ходимнинг ҳуқуқи ва ҳатти-ҳаракатларини, хизмат ва хизматдан ташқари вақтларида ҳам назорат қилиш ва оилавий шароити билан яқиндан танишиб бориш, профилактик тadbirlarni юқори савияда ўтказиш юзасидан кўрсатмалар берилди.

**Мансур УМРЗОҚОВ,**  
Навоий вилояти ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими бошлиғи, капитан.

**Маъруфжон ҲАЙНТОВ,**  
НКМК ЁХТГЭМ гуруҳ бошлиғи,  
катта сержант.

Наманган вилояти ФВБда “Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳамда менинг бошқармам – коррупциядан холи ҳудуд” мавзусида тadbир ташкил этилди.

## ИЛЛАТГА ҚАРШИ

Unda Наманган ҳарбий прокурори Давлатёр Раҳмонов тизим ходимлари орасида коррупцияга қарши курашиш борасида олиб борилаётган ишларга тўхталиб, ўз фикр-мулоҳазаларини билдирди.



Тadbирда бошқарма бошлиғи генерал-майор Қосимали Аҳмедов коррупцияга қарши курашиш, аввало, ҳалқимизнинг фаровон турмуш даражасини ошириш, иқтисодиётни ривожлантириш ва бизнес учун қулай муҳит яратиш, дея таъкидлаб ўтди.

**Абдужаббор МЎМИНОВ,**  
Наманган вилояти ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими бошлиғи,  
подполковник.



## САРҲИСОБ

Наманган вилояти ФВБда Ўзбекистон Республикаси Бош вазири – Фуқаро муҳофазаси бошлиғининг 2023 йил 6 январдаги “Ўзбекистон Республикаси аҳолиси ва ҳудудларини фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, фуқаро муҳофазаси ва ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича 2022 йилда бажарилган ишлар якуни ва 2023 йилдаги асосий вазифалар тўғрисида”ги буйруғига асо-

сан вилоят ФВДТга қирувчи бошқармалар, ташкилот, идора, муассасалар ҳамда ўта муҳим ва тоифаланган объектларнинг фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси бўйича масъул шахслари ва мутахассислари таркиби билан ўқув-семинар ўтказилди.

**Рустам ТУРСУНОВ,**  
Наманган вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, майор.  
**Фарход БАННАЕВ,**  
бошқарма бўлим бош мутахассиси.



# BOSHQARMA BIRINCHILIGI

Qashqadaryo viloyati FVB va uning quyi tuzilmalari o'rtasida "Stol tennis" bo'yicha boshqarma birinchiligi bo'lib o'tdi.



Bellashuv harbiylar hamda xizmatchilar o'rtasida tashkil etilib, har bir shahar, tuman hamda o'ta muhim toifalangan obyektlarda yong'in

xavfsizligini ta'minlash qismlaridan 1 nafardan jami 65 nafar ishtirokchi o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Musobaqada harbiylar

o'rtasida 3-o'rinni boshqarma «Sho'rtanGKM» MChJ obyekt binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi 39-yong'in-qutqaruv qismi qutqaruvchisi A.Bo'riyev qo'lga kiritgan bo'lsa, 2-o'rin Qarshi shahar bo'lim qutqaruvchisi E.Tilovovga nasib etdi. 1-o'rinni "Sho'rtaneftegaz" OBYOXTTEB 36-YoQQ qutqaruvchisi Sh.Yo'ldoshev qo'lga kiritdi.

Xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan bahslarda ham g'olib va sovrindorlar aniqlandi. Musobaqa g'oliblari munosib taqdirlandilar.

**O'tkir YODGOROV,**  
Qashqadaryo viloyati  
FVB bo'lim xodimi, birinchi  
darajali serjant.

## O'QUV

FVV Akademiyasi huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markaziga birinchi o'quv yig'iniga jalb etilgan tinglovchilar tarkibi bilan o'quv seminar mashg'uloti o'tkazildi.



Unda markazning malakali o'qituvchilari tomonidan "Yong'in-qutqaruv texnikasi asoslari" fanidan yurtimizda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy "ISUZU" yong'in-qutqaruv avtomobili bo'yicha ma'lumotlar berilib, yong'in, avariya va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda hamda odamlar hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilgan vaqtlarda ularni qutqarish uchun foydalaniladigan yong'in-qutqaruv avtomobilidagi mavjud avariya-qutqaruv asbob-anjomlari bo'yicha tushunchalar berildi.

Mashg'ulot davomida sohaning yosh harbiy xizmatchilari tomonidan yong'in-qutqaruv avtomobilidagi maxsus agregati orqali suv tortib, bilimlarini mustahkamladilar.

**R.MAXAMOV,**  
FVV Akademiyasi huzuridagi  
BT va MOM  
sikl katta o'qituvchisi, podpolkovnik.  
**J.XOLMURODOV,**  
markaz sikl o'qituvchisi, mayor.

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani markazidan 27 km. uzoqlikda Janubiy "Kemachi" koni yo'nalishida harakatlanib ketayotgan, "Qorovulbozorkuduq-ta'mirlash" korxonasi tegishli "Gazel" rusumli yuk avtomobili yo'lining sirpanchiq va past-balandligi sababli, boshqaruvni yo'qotib, ag'darilgan.

## QUTQARUV

Viloyat FVB Muborak NGQChB OBYOXTTEB boshlig'i mayor Sh.Sayfuloyev bo'lim boshlig'i bilan "Jayron" koniga nazoratga ketayotgan vaqtda voqea joyiga kelishgan. Zudlik bilan "Gazel" haydovchisiga yordam ko'rsatilib, uni tan jarohati olmag'anligiga ishonch hosil qilindi. Avtomashinani tiklash choralarini ko'rish maqsadida bir tomondagi qumlik belkuraklar yordamida olinib, avtomashina atrofi tekislandi.

Boshqa yo'lda ketayotgan "Buxorogeo fizika ekspeditiviyasi"ga qarashli "KamAZ" avtomashinasi qutqarish ishlariga jalb qilinib, "Gazel" avtomashinasi tiklandi.

Avtomashina sozligi tekshirilib, dvigatel ishga tushirildi. Oziq-ovqatlar avtomashinaga qayta yuklanib, o'z yo'lida davom etdi.

**T.SHAROPOV,**  
Buxoro viloyati FVB  
Muborak NGQChB OBYOXTTEB  
boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

## ДОВОНДА ПРЕСС-ТУР

"Камчик" довоининг умумий uzunligi 100 километрни ташкил этади. Бу йўлдан кунига ўртача 30 мингдан ортиқ транспорт воситалари ҳаракатланади.

Давлатимизнинг барча куч-воситаларини огохлантириш, кўнгилсиз ходисалар рўй берганда уларни бартараф этиш бўйича доводдаги 26 та ижтимоий объектда барча шарт-шароитлар яратилиб, уларнинг 15 тасида механизациялашган назорат гуруҳлари тuzилган. Йўловчиларнинг хавфсиз ва узлуксиз ҳаракатини таъминлаш мақсадида ФВВ "Камчик" махсус кидирув, ёнғин-қутқарув бoшқармаси, Наманган вилояти ФВВ ва ИИБ Йўл ҳаракати хавфсизлиги бoшқармалари, "Камчикавтойўл" икhtисoслаштирилган йўллардан фойдаланиш унитар корхонаси масъул ходимларидан иборат тезкор нав-

батчилик йўлга кўйилган. Довонда ОАВ, журналистлар ва блогерлар учун пресс-тур ва матбуот анжумани ўтказилди. Унда журналистлар биринчи бўлиб доводда жойлашган "Бешкўл" навбатчилик маскани авария-қутқарув отряди биноси, техникалар ва кутқарувчилар ҳаёти, шу билан бирга, навбатчилик маскани ёнида жойлашган аҳолини қабул қилиш бўйича исиниш масканлари, ундаги шарт-шароитлар ҳақида маълумотлар олишди.

2-нукта эса доводда жойлашган 15 та механизациялашган назорат кузатув гуруҳларидан бири, 6-механизациялашган назорат кузатув гуруҳи

фаолияти билан танишдилар. шунингдек, "Камчик" ИЙФУК 524-йўл бўлимининг техника ва куч воситаларининг кундалик фаолиятини ўргандилар.

Кейинги нуктада фавқулодда вазиятларда аҳолининг "SOS" панелларидан фойдаланиши ҳамда кутқарувчиларни чақиритиш тартиби ҳақида маълумот берилди.

Сўнг "Камчик" Махсус кидирув, ёнғин-қутқарув бoшқармаси тизимидаги махсус техникаларнинг техник-тактик имкониятлари билан танишилди. Шу билан бирга, доводда фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш бўйича амалга оширилган чора-тадбирлар юзасидан ўзларини кизиктирган барча саволларга жавоб олдилар.

**ШАБДУСАТТОВА,**  
ФВВ "Камчик"  
МҚЁҚБ етакчи  
мутахассиси.

FVV Akademiyasi huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tinglovchilar o'rtasida maxsus kuch ishlatish mashqlari estafetasi (kross-fit) musobaqasi bo'lib o'tdi.

## KROSS-FIT

Uni Markaz boshlig'ining xizmat bo'yicha o'rinbosari podpolkovnik Sh.Tojimatov kirish so'zi bilan ochib, sohada olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda yosh harbiy xizmatchilarga berilayotgan imkoniyat hamda imtiyozlar, tizim uchun ajratilayotgan yangi va zamonaviy turdagi texnikalar ularning afzallik, qulaylik tomonlari haqida qisqacha to'xtalib o'tdi.

Musobaqada jami yettita jamoa to'rtta shart bo'yicha bellashdi.

Bahslar qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tib, hakamlar hay'ati jamoalar chiqishlarini baholab bordilar.

Bellashuv yakuniga ko'ra 1-guruh tinglovchilari oddiy askarlar T.Qo'shboqov, M.Xolmatov, E.Toshov va xizmatchi Sh.Jo'raevlardan tashkil topgan "Qalqonlar" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

G'olib jamoa va faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliqlar topshirildi.

**Sh.MAMATKULOV,**  
FVV Akademiyasi huzuridagi  
BT va MOM katta ofitseri, mayor.

Ёнғин шубҳасиз даҳшатли фалокатлардан биридир. У кишиларни ўз яқинлари ва мол-мулкидан айирадиган офат.

## ЭХТИЁТ БЎЛИНГ!

Табийки, ёнғин қачон ва қерда содир бўлишини айтиш мушкул. Бирок, уни келтириб чиқарувчи сабаблар бисёр. Бу эса эҳтиёткорлик чораларини янада кучайтириш лозимлигини англатади.

Хусусан, катта ёшли инсонлар, айниқса, уй бекалари эҳтиёткор бўлиши, газ ва электр мосламаларидан фойдаланиш тартиб-қоидаларига тўлиқ риоя этиши зарур. Ёнғин хавфсизлиги хизмати ходимлари аҳолининг хотиржамлиги ва фуқаро муҳофазасини таъминлаш, турли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш мақсадида барча юртдошларимизга мавсум "инжиқлик"ларини ҳисобга олиб, олов манбаларини қаровсиз ва эътибордан четда қолдирмасликларини яна бир бор эслатиб ўтаемиз.

**Ж.ЭГАМНАЗАРОВ,**  
Миробод тумани ФВ  
бўлими бўлинма  
мутахассиси, оддий аскар.



## ҲАРБИЙЛАР ИШТИРОКИДА

Қарши ҳарбий прокуратураси ташаббуси билан вилоят ФВБ, Мудофаа ва Миллий гвардия бошқармалари вакиллари иштирокида Дехқонобод туманидаги ташкилот раҳбарлари билан ҳамкорликда сайёр қабул бўлиб ўтди.



Унда Қарши ҳарбий прокурори адлия подполковниги Бахтиёр Аҳмедов бугунги кунда Президентимиз томонидан олиб борилаётган оқилона сиёсат замирида, энг аввало, “Инсон қадр” тамойили асосида “махаллабай” ишлаш тизими фуқароларнинг мавжуд муаммоларини ҳал этиш ва кечиктириб бўлмайдиган зарур чоралар кўриш бўйича тadbирлар амалга оширилаётганлиги тўғрисида айтиб ўтди.

Сайёр қабулда ҳарбий хизматчилар ва уларнинг

оила аъзолари ҳамда фуқароларни ишга кириш, имтиёзли кредит олиш, пенсия ва нафақа тайинлашда кўмаклашиш, тиббий ёрдам кўрсатиш, ҳарбий хизматга ишга кириш ва сафарбарлик, газ ва электр таъминотидаги тўловларда амалий ёрдам бериш, муддатли ҳарбий хизмат ўташга чақирилиши давомида оилавий ва моддий томондан юзага келаётган кийинчиликларга амалий ёрдам кўрсатиш, ҳарбий гувоҳнома олиш юзасидаги мурожаатлари тингланиб, ҳал этиш

чоралари кўрилди. Муддат талаб қилинадиган мурожаатлар мазмун-моҳиятига кўра ҳуқуқий тушунтириш ва амалий ёрдам кўрсатиш бўйича алоқадор ташкилотларга йўналтирилди.

Фуқароларнинг ҳарбий гувоҳнома олишга оид мурожаатлари кондирлиб, уларга ҳарбий гувоҳномалар берилди.

Шунингдек, қабул давомида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш энг муҳим вазифаларимиздан бири эканлиги, ҳарбий хизматни ўташ тартибига боғлиқ қонун ва қонуности ҳужжатлар ва тегишли буйруқларнинг мазмун-моҳиятини ўрганиб бориш ҳамда белгиланган устувор вазифаларни ўз вақтида сифатли бажариш, тизимда коррупцияга қарши курашиш юзасидан кўрсатма ва тушунтиришлар берилди.

**Ўткирбек ЙЎЛДОШЕВ,**  
Дехқонобод тумани ФВБ бўлими бўлинима бошлиғи, майор.



Наманган вилояти ФВБ Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ходимлари томонидан 24 ҳамда 30 соатлик дастур асосида ташкилот, муассаса ва корхона раҳбарлари, уларнинг ўринбосарлари ҳамда фуқаро муҳофазаси мутахассислари тоифасидаги 13 хил топфадаги жами 1500 нафардан зиёд тингловчи билан фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш ҳамда фуқаро муҳофазасига тайёрлаш бўйича ўқув машғулотларини ўтказиш режалаштирилган.

Назарий ҳамда амалий ўқув машғулотлари узоқ тажрибага эга бўлган малакали ўқитувчилар томонидан замонавий талаблар асо-

сида олиб борилмоқда.

**Абдуғани ХОДЖАЕВ,**  
Наманган вилояти ФВБ ҲФХҲМ ўқитувчиси.

## KASB FIDOYILARI

Har bir xizmatni tashkil etishda o'rnatilgan tartib-qoidalar bo'lganidek, yong'inni bartaraf etish uchun, avvalo, yong'in-qutqaruvchilari xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda birinchi o'rinda elektr simlariga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Chunki suv eng yaxshi elektrni o'tkazuvchidir. Elektr toki tarmoqdan uzilmagunga qadar, yong'in-qutqaruvchilari tomonidan yong'inni o'chirishga kirishilmaydi. Birinchi navbatda qutqaruvchilar va atrofdagi fuqarolarning xavfsizligi inobatga olinadi.



Qarshi shahridagi savdo majmuasi ro'parasida ro'y bergan yong'inida, hodisa joyida katta kuchlanishli elektr toki borligi sababli yong'inga suv berish imkoni bo'lmagan. Shunga qaramay qutqaruvchilar suv berishga uringan, natijada mavjud elektr toki qutqaruvchilarga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Ma'lum bo'lishicha, ushbu

manzildan o'tuvchi elektr liniyasini asosiy tarmoqdan uzish uchun elektr mutaxassislari tomonidan bir muncha vaqt sarflangan.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan videolavhalarda ushbu vaziyatni tushunmay turli tanqidiy fikrlar bildirgan fuqarolar ham yo'q emas.

Albatta, har bir yong'in-qutqaruvchi jismonan baquvvat, aqlan sog'lom, kasbiy mahoratga ega, psixologik jihatdan har qanday vaziyatda aqlan va jismonan fikrlay oladigan va doimo jangovar shaydir.

Shu o'rinda fuqarolarimizdan vaziyatni to'liq bilmay turib, soha vakillarining ushbu harakatlarini noto'g'ri talqin qilmasliklarini so'rab qolamiz.

**Shaxboz BOBOMURODOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB matbuot xizmati xodimi, oddiy askar.

## СИНОВЛИ КУНЛАР ҲАЛИ ТУГАГАНИ ЙЎҚ

Оролбўйи минтақасида юртимизнинг бошқа ҳудудларига караганда об-ҳавонинг кескин пасайиб кетгани туфайли фавқулодда вазиятлар ходимлари масъулиятини янада оширди.

Жумладан, Қорақалпоғистон Республикаси Чимбой туманидаги аҳоли хонадонларида кўнгилсиз ходисалар юзага келмаслиги учун зарур чоралар кўрилди. Айтиш жоизки, совуқ кунларнинг беталафот ўтишида яқунланган йили маҳаллалар ва ишлаб чиқариш корхоналари ҳамда хонадонларда ходимларимиз томонидан тарғибот-ташвиқот ишлари пухта олиб борилгани асқотди. Шунга қарамадан, ҳар иккита маҳаллада кўшимча навбатчиликлар ташкил қилиниб, улар ёрдамида барча хонадонлардаги электр усқуналари, печлар кўздан кечирилди. Мазкур манбалардан вақтинчалик узилишлар бўлган ҳудудларда бошқа турдаги муқобил ёқилғи ҳамда

иситиш мосламаларидан фойдаланишга эҳтиёж органи сабабли туман фавқулодда вазиятлар бўлими ташаббуси билан махсус машиналарда сув етказилиб, кўмир захира сини яратишга кўмаклашилди.

Айрим носозликлар туфайли электр ва табиий газ манбаларидан вақтинчалик узилишлар бўлиб, сўнг қайта тикланиш жараёни жойларга бирқитилган ходимларимизни яна бир синовдан ўтказди. Яъни, “Бердак”, “Майжап”, “Қамишарик” каби овул фуқаролар йиғинида яшовчи хонадонлардан учтасининг оила бекалари “Газ узилди, энди яқин орада келмаса керак”, деган фикр билан эътиборсизлик қилиб, газ плиталарининг

мурватини ўчириксиз қолдиришган. Ярим тунда газ берилиши оқибатида шу хонадонларда ис газини содир бўлади. Шу ҳудудларда навбатчилик қилаётган ходимларнинг ҳушёрлиги натижасида вақтида офатнинг олди олинди ва ҳеч ким зиён кўрмади. Ваҳоланки, бўлим ходимлари бўлмаганда воқеа бошқача тарзда тугаши ҳам мумкин эди. Шу сабабли бундай ҳолатлар қайта такрорланмаслиги учун барча овуллардан кўнгилли ўт ўчирувчиларнинг ҳамкорлиги йўлга қўйилди. Улар кечаю-кундуз ходимларимиз билан бирга юриб, ҳар бир хонадондаги ёнгин билан боғлиқ вазиятни жиддий ўрганмоқдалар.

**Зафар АҲМЕДОВ,**  
Чимбой тумани ФВБ бўлими бошлиғи, капитан.

Наманган вилояти ФВБ Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув марказида умумтаълим мактаблари психологлари тоифасидаги тингловчилар бошқармада ташкил этилган музейга таклиф этилди.



## МУЗЕЙГА САЁҲАТ

Тингловчилар музейдаги ҳар бир экспонатлар билан яқиндан танишдилар.

Саёҳат давомида қадимда ўт ўчириш учун фойдаланилган от-аравалар, нарвонлар, махсус кийим-бошлардан тортиб, замонавий ўт ўчирувчининг ишчи кийимлари ҳақида сўзлаб берилди.

Шунингдек, тингловчилар билан ис газидан захарланиш, ҳаво-газ аралаш-

масининг чакнаши, ёнгинлар ва бошқа фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш мақсадида профилактик суҳбатлар олиб борилди.

Тadbирда тингловчилар ёнгин қутқарувчиларининг иш фаолияти билан ҳам яқиндан таништирилди.

**Абдурашид ИСОҚОВ,**  
Наманган вилояти ФВБ ҲФХҲМ ўқитувчиси.





## FUQAROLAR XAVFSIZLIGI

Хоразм вилояти FVB ҳамда “Hududgaz” Хоразм газ та’миноти филиали билан ҳамкорликда joylarda is gazidan zaharlanish, yong’in va turli favqulodda vaziyatlarning oldini olishga oid targ’ibot tadbirlari olib borilmoqda.



Viloyatning Bog’ot tumani “Abu Rayhon Beruniy” hamda “Oqtepa” mahallalarida o’tkazilgan navbatdagi targ’ibot tadbirlarida 500 ga yaqin aholi xonadonlarida o’rganish ishlari olib borilib, 40 dan ortiq kamchiliklar joyida bartaraf qilindi.

Soha hodimlarining xonadonlarga tashrifi davomida fuqarolarga uyni isitishda gaz plitalari ustiga g’isht qo’yib foydalanmaslik, gaz hidini sezganda chiroq yoki boshqa chaqnovchi vositalarni ishlatmaslik va tezlik bilan eshik-derazalarni ochib, xonalarni shamollatish, yosh bolalar, keksa yoshdagilar va nogironligi bo’lgan shaxslarni uyda qarovsiz

qoldirmaslik, shuningdek, isitish vositalarining texnik sozligiga e’tiborli bo’lishlari zarurligi tushuntirildi.

Targ’ibot davomida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tungi paytda ommaviy odamlar qoladigan joylarga borilib, ulardagi sharoitlar, isitish tizimi, xizmat avtotransport vositalarining texnik soz ekanligi ko’zdan kechirildi. Ishchi-xizmatchilarga yong’in hamda is gazidan zaharlanish bilan bog’liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo’yicha zarur tavsiyalar berildi.

**Elyorbek RAHIMOV,**  
Bog’ot tumani FV bo’limi boshlig’i o’rinbosari, kapitan.

## MUAMMO BARTARAF ETILDI

Toshkent shahar Olmazor tumani “Guzarboshi” va “Ahil” mahallalaridagi 315-, 24-, 11-umumta’lim maktablari binolaridagi issiqlik tizimi muammosini bartaraf etish maqsadida tuman hokimligi va FV bo’limi tomonidan maktablarda o’quvchilarni issiq xonalarda ta’lim olishlarini

ta’minlash maqsadida hamda qish mavsumida barqaror ishlashga tayyorlash uchun elektr generator bilan ta’minlandi va foydalanishga tayyor holda topshirildi.

**M.MURODOV,**  
Olmazor tumani FV bo’limi PvaNB inspektori, katta leytenant.

## INSON QADRI UCHUN

Наманган шаҳар ФВ бўлими томонидан “Фавқулдада вазиятлар профилактикаси куни” тadbirlari бўлиб ўтди.



Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani FV bo’limi tomonidan fuqarolarga favqulodda vaziyatlar, yong’inlar, is gazidan zaharlanish hamda gaz va havo aralashmasi chaqnashi kabi holatlarning oldini olish bo’yicha zarur tavsiyalar berib borilmoqda.

## TARG’IBOT

Olib borilayotgan profilaktik tadbirlar davomida fuqarolarga xonadonlarni isitishda gaz va elektr isitish moslamalari hamda ko’mirdan foydalanayotganda xavfsizlik qoidalariga rioya etish yuzasidan to’g’risida tushunchalar berilyapti.

Shuningdek, xonadonlarda olib borilgan targ’ibot tadbirlari davomida, fuqarolar tomonidan, asosan, dudburonlarni o’rnatishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilmayotganligi aniqlandi. Bu kabi beparvoliklar esa yong’inlar va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishiga asosiy sabab bo’layotganligi fuqarolarga tushuntirilib, joyida bartaraf etildi.

Tuman hududidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining issiqlik ta’minoti o’rganilib, ishchi-xizmatchilarga yo’riqnomalar berildi.

**Ahliddin ALLJONOV,**  
Farg’ona viloyati FVB OAV va JTbHQG boshlig’i, katta leytenant.

SEO va JSX Toshkent shahar boshqarmasi Olmazor tuman bo’limi boshlig’i O.Sultonov, bo’lim mutaxassislari hamda tuman FV bo’limi xodimi mayor M.Meliboyevlar bilan birgalikda tuman-dagi “Tansiqboev” dehqon bozorida ovqatdan zaharlanish va botulizm kasalliklarining oldini olishga oid reydtadbirlari olib borildi.

## BOZORDA REYD

Tadbir davomida bozor rastalari va do’konlaridagi oziq-ovqat mahsulotlari sifatini kafolatlovchi hujjatlar mavjudligi va ularning saqlash sharoitlari, muddati ko’zdan kechirildi. Sifati talab darajasida bo’lmagan oziq-ovqat mahsulotlari savdodan chetlatildi.

Soha mutaxassislari tomonidan sotuvchilar bilan sanitariyagigiena qoidalariga amal qilish yuzasidan targ’ibot ishlari olib borildi.

**M.MELIBOYEV,**  
Olmazor tumani FV bo’limi bo’linma boshlig’i, mayor.



Tadbir davomida asosiy ehtiyoj ahoли xavfsizligini ta’minlash, fавқулдада вазиятлар, inson haёti, sogliғi hamda moddiy бойликларига zarar etkazishi mumkin бўлган holatlarнинг oldini olishga karatildi.

Bўlim ходимлари tomonidan Наманган шаҳар “Хаккикат”, “Диёр” va “Сардоба” маҳаллаларидаги мавжуд 780 та аҳоли яшаш хонадонлари va 8 та кўп каватли уйларга шахсий таркиб тақсимот асосида бўлиниб, йўриқнома берилди va тadbirlariga чикарилди.

Tadbir davomida шахсий таркиб tomonidan 908 та хонадон текширилиб, ўрганиш жараёнида ёнгина хавfli 26 та хонадон, чакнашга хавfli 14 та хонадон аниқланди va аниқланган камчиликлар ўз ўрнида bartaraf ettirildi. Хонадонда истикомат қилаётган

1368 нафар фуқарога фавқулдада вазиятларда va ёнгина хавфсизligini та’minlash, sodir бўлиши mumkin бўлган ёнгина, is gazidan zaharlanish, chaknash holatlarining oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

“Худудгаз” ходимлари билан ҳамкорликда рейдлар ўтказилиб, tadbir davomida аниқланган газ тортиш мосламаларига белгиланган тартибда хужжатлар расмийлаштирилди va хавф bartaraf etildi.

Bundan tashqari, маҳаллаларда фуқароларга botulizm va kuturish kasalligining oldini olish hamda ёш болаларни назоратсиз қолдирмаслик тўғрисида tushunchalar berildi.

**Шухрат ШУКУРОВ,**  
Наманган шаҳар ФВ бўлими бoshlig’и ўринбосари, майор.

## ҚУРИЛИШ СОҲАСИДА ҚАНДАЙ ЎЗГАРИШЛАР КУТИЛМОҚДА?

Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал va инновацион ривожлантиришнинг 2021–2025 йилларга мўлжалланган стратегияси тасдиқланди.

Стратегия Президентимизнинг 2020 йил 13 мартдаги фармониға мувофиқ ишлаб чиқилган. Унинг мақсади – бошқарувнинг замонавий усулларини шакллантириш, лойиҳаларни амалға оширишда инвестициявий жозибдорликни ошириш va инновацион ечимларни жорий этишға қаратилган қурилиш тармоғидаги ислохотлардир.

Хужжатнинг асосий йўналишлари: ҳудудларни шаҳарсозлик жиҳатидан ривожлантириш va ушбу жараёнда жамоатчиликнинг самарали иштирокини таъминлаш; шаҳарсозлик фаолиятининг сифати va хавфсизligini ошириш; шаҳарсозлик фаолияти соҳасидаги маъмурий тартиб-таомилларнинг самарадорligи, рационалligи va шаффофligini таъминлаш, шунингдек, қурилиш тармоғи ташкilotлари фаолиятининг самарадорligини ошириш; шаҳарсозлик фаолиятини рақамлаштириш, тармоққа замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш; шаҳарсозлик фаолияти соҳасида кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш va уларнинг малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, илмий салоҳиятни ривожлантириш каби вазиғалардан иборат.

Шунингдек, фармон билан “Йўл харитаси” тасдиқланди va стратегияни амалға ошириш бўйича мақсадли кўрсаткичлар белгиланди. Иккинчи қаторида, хусусан: 2025 йил охириға бориб, “Бизнес юритиш” халқаро индексида (Doing Business Index) “Қурилишға рўхсатномалар олиш” (Dealing with Construction Permits) йўналиши бўйича Ўзбекистон Республикасининг позициясини жорий 61.7 балдан 78.2 баллға яхшилаш; республиканинг геологик, табиий-иклим, сейсмологик va бошқа хусусиятларини инобатға олган ҳолда миллий шаҳарсозлик нормалари va қоидаларини қайта 50% даражасида халқаро норматив va стандартлар билан уйғунлаштиришға эришиш; шаҳарларнинг барчасини va шаҳар посёлқаларининг 25%ни бош режалар билан қамраб олишға эришиш; “Шаффоф қурилиш” миллий ахборот тизими доирасида қўшимча тўртта электрон платформа яратилиши, шунингдек, уларнинг идоралараро ахборот тизимлари va маълумотлар базалари билан интеграция қилинишини таъминлаш масалалари асосий тартибдан жой олган.

**Ҳамидулло ЮЛДАШЕВ,**  
Наманган вилояти ФВБ НТБ бoshlig’и, майор.  
**Иброҳимжон КАРИМОВ,**  
бошқарма НТБ инспектори, капитан.



## ЎРГАНИШ

Андижон вилояти Пахтаобод тумани ҳудудида ўтган 2022 йил давомида 43 та ҳамда жорий йилнинг ўтган даври мобайнида 3 та ёнғин содир бўлиб, ушбу ёнғинлар натижасида инсонларнинг куйиб, тан жароҳати олиш ҳолатлари аниқланмади, лекин ушбу ёнғинлар оқибатида бир неча миллион сўмлик моддий зарар кўрилган.

Ёнғинлар фуқароларнинг но-стандарт электр иситиш мосламаларидан фойдаланиши, муриконларнинг носозлиги, очик оловдан фойдаланишда эҳтиётсизлик оқибатида келиб чиқмоқда.

Ҳозирда туман ФВ бўлими томонидан "YERELEKTRON" тизими орқали келиб тушаётган мурожатлар белгиланган муддатларда ўрганиб чиқилиб, ўз вақтида жавоб кайтарилмоқда. Бундан ташқари, тумандаги қурилиш ва таъмирлаш ишлари олиб борилаётган объектларда қурувчи ва муҳандисларга ёнғин хавфсизлиги қоидаларига амал қилиш бўйича йўриқномалар берилмоқда.

**Қ.УЗОҚОВ,**  
Пахтаобод туман ФВ бўлими бўлинма бошлиғи, капитан.

## NAZORAT

Shahrisabz shahri hududida yangi qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan va qayta ta'mirlanayotgan maskanlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash, aynan yangi qurilish uchun yer tanlash va qurilish jarayonida yong'in xavfsizligini nazorat etish maqsadida Shahrisabz shahar FV bo'limi tomonidan qurilish tashkiloti rahbarlari va quruvchilar o'rtasida bir qator tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Shuni aytish kerakki, bo'lim xodimlari tomonidan quruvchilar va mas'ul xodimlar bilan birgalikda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash, is gazidan zaharlanishlarning oldini olish borasida profilaktik suhbatlar doimiy tarzda o'tkazilib, kerakli tavsiya va ko'nikmalar berib kelinmoqda.

Shuningdek, xodimlar tomonidan shahar hududidagi qurilish ishlari olib borilayotgan obektlarda yotib qoladigan quruvchilarning yotoq joylari, ularning isitilish holatlari va qanday isitish vositalaridan foydalanilayotganligi tungi tekshiruvlar davomida o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf etish choralari ko'rib, shahar hokimligiga mavjud holat yuzasidan axborotnoma va taqdimnomalar kiritib kelinmoqda.

**E.YO'LDOŠEV,**  
Shahrisabz shahar FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

Қиш мавсумини беталафот ўтказиш мақсадида Наманган шаҳар ҳудудида рейд тадбирлари ўтказилди.



## МАҚСАД – ҚИШНИ БЕТАЛАФОТ ЎТКАЗИШ

Мазкур тадбирларда хонадон эгалари содир бўлиши мумкин бўлган турли қўнғилсиз ҳолатлардан огоҳ этилди.

Боғулизм, ис газидан захарланиш, ёнғин, чакнаш каби фавқуллода вазиятларнинг олдини олиш ҳақида гушунтириш ишлари олиб борилиб, қўлбола иситиш мосламаларидан фойдаланмаслик, дудбуронларни тозалаш, бирламчи ёнғин ўчириш воситаларини шай ҳолатга

келтириш юзасидан тавсиялар берилди.

Шунингдек, маҳаллаларда ўзбошимчалик билан газ тақсимлаш қутиларига айрим фуқаролар томонидан но-стандарт, қўлбола газ сўргичлар ўрнатиб олингани аниқланиб, ҳолатлар бартараф этилди.

**Рустам ЭГАМБЕРДИЕВ,**  
Наманган вилояти ФВБ ОАВВаЖТБХҚГ етакчи мутахассиси.

## МУҲИМ ТАВСИЯЛАР

"Шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари"га асосан газ асбобларидан чиқадиган мўри каналларининг ўрнатилишига эътибор қарагин, камида том чўққисидан 1,5 м. узоқликда ўрнатиш, қонда-талаблардан келиб чиққан ҳолда уларда химоя қалпоқлари бўлиши, таъмирталаб ҳолга келиб қолган бўлса, ўз вақтида янғинсизга алмаштирилиши лозим.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Электр энергияси ва табиий газдан фойдаланиш тартибини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорининг тегишли бандида истеъмолчининг хавфсизлиги борасидаги мажбуриятлари белгилаб қўйилган.

Хусусан, белгиланган тартибда тугун мурилари, вентиляция каналлари ҳолатининг ўз вақтида текширилишини ташкил этиш, носозликлар мавжуд бўлса, улар тўғрисида ёнғин хавфсизлиги хизматларига хабар бериш шарт.

Фуқаролар хонадонларида газлаштирилган печлар, муриларда синч зичлиги, ёриқлар бузилиши ҳолатлари аниқланса, мўри ва вентиляция каналларининг текширилганлиги, тозаланганлиги тўғрисида далолатнома мавжуд бўлмаганда ёки муддати ўтгандан сўнг фойдаланиб келинаётган бўлса, муриконлари ўзбошимчалик билан тозаланса, табиий газдан фойдаланишга йўл қўйилмайди.

**Н.НУРУЛЛАЕВА,**

Бухоро вилояти ФВБ матбуот хизмати ходими.

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan bir qancha issiqlik chodirlari tiklanib, aholiga sharoitni yaxshilash bilan bir qatorda issiq oziq-ovqat va isinish uchun dala chodirlari tiklanib, kunu tun fuqarolar uchun muntazam ravishda xizmat ko'rsatyapti.

## ISSIQLIK CHODIRLARI

Bundan tashqari, fuqarolarga elektr qurilmalari va isitish moslamalariga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ushbu qurilmalardan foydalanilmayotgan vaqtlarda tarmoqdan ajratib qo'yish, energiya resurslaridan imkon

qadar tejamkorlik bilan foydalanish, shuningdek, is gazidan zaharlanishning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berilmoqda.

**S.I.LHOMOV,**  
Olmazor tumani FV bo'limi inspektori, leytenant.

## YONG'IN XAVFSIZLIGI

Har qanday qurilish maydonidagi yong'in xavfsizligi ko'p jihatdan qurilish bosh tarixida yong'inga qarshi tadbirlarni me'yor talabi darajasida puxta ishlanganligiga va ish jarayonida ularni to'liq bajarilishiga bog'liqdir.

Jumladan, bunda doimiy va muvaqqat qurilajak binolar orasidagi yong'inga qarshi oraliqlar, avtomobil yo'llari va piyodalar uchun yo'lkalar, ko'priklar, yonishga moyil ashyolarni xavfsiz saqlanishini ta'minlash, suv ta'minoti tarmoqlari va kanalizatsiyani kiritish, elektr tarmoqlari va yoritgichlarni o'rnatish, yong'in paytida ishlatish uchun gidrantlarni o'rnatish yoki shu maqsad uchun suv olish manbalarini tayinlash, olov yoqish va chekish uchun xavfsiz joylarni belgilash va h.k. lar batafsil yoritilgan bo'lishi kerak.

Qurilish maydonini tayyor-

lash davridayoq kanalizatsiya va suv tarmog'ini kiritib, yong'in gidrantlarini bir-biridan 100 m. dan va foydalanajak binodan 5 m ko'p bo'lmagan masofada o'rnatish lozim bo'ladi.

Gidrantlarni joylashgan joyida yoritgichlar o'rnatilgan bo'lib, moshinalar uchun asfalt yotqizilgan yo'llar bo'lishi shart va ko'zga ko'rinadigan qilib PG deb yozib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Qurilish maydonida yonuvchan chiqindilar (yog'och qipiq-lari, payraxalar, qirindi va boshqalar)ning saqlash joyini to'g'ri tanlash, ya'ni shamol chiqib ketadigan yo'nalish bo'yicha bino va inshootlardan kam deganda 50 m masofada uzoqlashgan yerda joylashgan bo'lishi kerak.

**Sherzod TURSUNOV,**  
Toshkent shahar FVB DM YoXTTEB YoN va PB inspektori, mayor.

Toshkent shahar Olmazor tumani FV bo'limi, shuningdek, tuman gaz ta'minoti, elektr tarmoqlari korxonalari, "Tohirjon GRPI ta'mir Beznes" MChJ dudburon xizmati va mahalla raislari bilan hamkorlikda ishchi guruhlar tashkil etilib, mahallalardagi aholi yashash joylarida va ko'p qavatli uylarda joylashgan aholi xonadonlarida va ijtimoiy-iqtisodiy soha obyektlarida is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi, botulizm, yong'inlar va boshqa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

## O'Z VAQTIDA YORDAM BERAYLIK!



Mazkur tadbirlar davomida aholi gavjum joylarda, xususan, savdo maskanlarida xavfsizlik qoidalarigi rioya etish borasidagi eslatma va yo'riqnomalar tarqatilib, aholini qiynab kelayotgan bir qator muammolarni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

**Sh.IBRAGIMOV,**  
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## PROFILAKTIKA

Farg'ona viloyati Yozyovon tumani FV bo'limi tomonidan tuman hududidagi qurilish olib borilayotgan obektlarda favqulodda vaziyatlar, jumladan, is gazi va oziq-ovqatdan zaharlanish, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, yong'inlarning oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar olib borildi.

Tadbirlar davomida qurilishga jalb etilgan ishchi-xodimlarga ajratilgan turar joylarning yong'in xavfsizligi hamda ishchi-xodimlar tomonidan qurilish ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish holatlari o'rganib chiqildi.

O'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf

etish yuzasidan mas'ullarga tavsiyalar berildi.

**Elyor SHODMONOV,**  
Farg'ona viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.

**Abdujabbor SOTVOLDIYEV,**  
Yozyovon tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, leytenant.



# ҚУТҚАРУВЧИ ЎҒЛОНЛАР!

Мусаффордир Ўзбекистон осмони.  
Юртга калкон Ватанинг мард посбони.  
Кузатилса, фавқуллода вазият.  
Шай туради қутқарувчи ўғлони.

Бари шундай шижоатли, мард, жасур.  
Ўтда ёнмас, сувда чўкмас баходир.  
Тог куласа, калкон турар халқ учун.  
Туфон келса, олишишга тайёрдир.

Фавқуллода вазиятлар турфа хил.  
Аммо мардлар енгилмас бўлиб аҳил...  
Эл дуоси қўлаб турар уларни.  
“Фуруримсиз” дея фахр этар дил...

Чин ўғлони – калконидир Ватанин.  
У бор экан, офат олмас чаманин.  
Ерда қоплон, сувда жайхун мисоли.  
Ёрдам учун кўкка учар саманин...

Мусаффордир Ўзбекистон осмони.  
Юртга калкон Ватанинг мард посбони.  
Кузатилса, фавқуллода вазият.  
Шай туради қутқарувчи ўғлони.

**Бахтигул ЖУМАНИЯЗОВА,**  
Хоразм вилояти Богот тумани  
ФВ бўлими етакчи мутахассиси.



## Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқуллода**  
**вазиятлар**  
**вазирлиги**

Бош муҳаррир в.б.  
**Азамат СУЮНОВ**

Газета таҳририят  
компьютерхонасида  
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти — 15:00.  
Топширилди — 15:00.

Навбатчи:  
**Б.ВАЛИЕВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди ва  
изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри таҳририят  
нуқтаи назаридан фарқлиниши  
мумкин.

Газетадан олинган  
материаллар манбаси  
курсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон  
Матбуот ва ахборот  
агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-рақам  
билан руйхатга олинган.  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.  
Тел.: (71) 231-96-71  
Телеграмм: (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташкilotлар учун – 382

Газета  
“BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
**Манзил:** Тошкент шаҳри,  
Сўгалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т  
Адади — 7650 нуска

## ҚИЗИҚАРЛИ ФАКТЛАР

### Қисқа сатрларда



Шахмат бўйича дунё чемпиони Владимир Крамникнинг шахмат дастури Фритз билан ўйнаётган пайти эснаши унинг мағлубиятига сабаб бўлган.

— Англияда XVIII асрда оксуяк олифталар ўта тор панталон кийишган. Унга сигиш учун кийилаётганда махсус мослама ёрдамида чўзиб турганлар.



— Машҳур бастакор Бетховен янги куй ёзишдан олдин бошини муздек сув тўла бочкага тикиб оларди.

— Дастлабки шарикли ручкалар савдога 1945 йилда чиқарилди. Ҳар бирининг нархи 12 доллар бўлган.



— Дастлабки галстуклар Хорватияда пайдо бўлган. Айнан шунинг учун ҳам, англиз тилида галстук сўзи – срават (Хорватия – Сроатиа) бўлса керак.



— Фиръавн Рамзес II нинг 160 нафар фарзанди бўлган.



— Қадимги Мисрда дала-ларнинг асосий зараркундалари чигиртка ёки кўнгизлар эмас, балки бегемотлар ҳисобланган.

**Масрур САНАЕВ**  
интернет материаллари асосида  
тайёрлади.